Xamidova Zarina Iskandar qizi	
Qushlar migratsiyasi va uning ekologik sabablari	619
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Raximova Dilfuza Ilyos qizi, Saburova Sarvinoz Erkabay qizi	
Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning nazariy va amaliy asoslari	623
Xasanova Nilufar Raxmatovna	
Raqamli avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati uyg'unligi	628
Xaydarova Xilola Raximberdiyevna	
Разработка алгоритмов для визуализации и анализа решения задач линейного программирования	631
Буронова Муниса Баходировна, Хакимов Дониёр Бахтиёр Угли	
Ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv tushunchasi va iqtisodiy mazmuni	637
Mannanova Maftuna Fazliddin qizi	
Koreya ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va uning pedagogik mohiyati	641
Adamatov Anvar Ablaqulovich	
Bo'lajak pedagoglarning raqamli didaktik kompetensiyasini rivojlantirish: muammo va yechimlar	645
Uskanov Kaxramon Xalikulovich	
Matematika fanini o'qitishda onlayn platformalardan foydalanish	648
Mirzayeva Shahlo, Yorqulova Mashhura, Boboqulova Durdona	



ONA TILI TA'LIMIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUV JARAYONINI MODELLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Jumayeva Hulkar Panji qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning lingvokreativ kompetensiyasini rivojlantirish, ijodiy fikrlash hamda nutq faoliyatini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotda kreativ yondashuvni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan didaktik, metodik va tashkiliy omillar, shuningdek, 4K modeli asosida o'quv jarayonini loyihalash va modellashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Natijada ona tili ta'limida kreativ muhitni shakllantirishning ilmiy asoslari aniqlangan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, kreativ yondashuv, modellashtirish, pedagogik shart-sharoitlar, lingvokreativlik, 4K modeli, ijodiy fikrlash, kompetensiya, o'quv jarayoni.

Abstract: This article scientifically analyzes the pedagogical conditions for modeling the educational process based on a creative approach in mother tongue education. In the modern educational system, the development of students' linguistic creativity competence, as well as the improvement of creative thinking and speech activity, is considered one of the most relevant issues. The study highlights the didactic, methodological, and organizational factors necessary for the effective implementation of a creative approach, along with the possibilities of designing and modeling the educational process based on the 4K model. As a result, the scientific foundations for creating a creative educational environment in mother tongue education are identified.

Key words: mother tongue education, creative approach, modeling, pedagogical conditions, linguistic creativity, 4K model, creative thinking, competence, educational process.

Аннотация: В данной статье научно анализируются педагогические условия моделирования учебного процесса на основе креативного подхода в обучении родному языку. В современной системе образования развитие лингвокреативной компетенции студентов, а также совершенствование их творческого мышления и речевой деятельности рассматриваются как одни из актуальных задач. В исследовании освещаются дидактические, методические и организационные факторы, необходимые для эффективного внедрения креативного подхода, а также возможности проектирования и моделирования учебного процесса на основе модели 4К. В результате определяются научные основы формирования креативной образовательной среды в обучении родному языку.

Ключевые слова: обучение родному языку, креативный подход, моделирование, педагогические условия, лингвокреативность, модель 4К, творческое мышление, компетенция, учебный процесс.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimidan yangicha yondashuvlarni, xususan, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishni talab qilmoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tilida savodxonlik, nutq madaniyati, tafakkur va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganda samaradorlik yanada ortadi. Ona tili darslarini modellashtirish ta'limning mazmuni, shakli va metodikasini yangi bosqichga ko'taruvchi muhim didaktik jarayon sifatida e'tirof etilmoqda.

Modellashtirish - bu o'quv jarayonining tarkibiy qismlarini tizimli holda loyihalash, darsning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash mezonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni oldindan ko'rish va boshqarish imkonini beruvchi pedagogik texnologiya sanaladi. U o'quvchi faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish, o'quv materialini mantiqiy tizimga solish, o'qituvchining metodik rejalashtirishini optimallashtirish hamda dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan didaktik modellardan foydalanish o'quvchilarning til o'rganish motivatsiyasini kuchaytiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va mustaqil o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida sifatli ta'limni ta'minlash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ona tili ta'limi shaxsning nutqiy madaniyati, mantiqiy tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy fan sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ona tili darslarini an'anaviy yondashuvdan chiqib, kreativ pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik modellashtirish muammolari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy, P.Ya. Galperin, N.F. Talizina kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim o'rin egallaydi.

L.S. Vygotskiy ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish orqali o'quvchining intellektual salohiyatini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan.

Davydov esa rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasida o'quvchilarni nazariy tafakkurga yo'naltirishda modellashtirish metodining alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bergan. Ushbu nazariyalar boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini loyihalash va modellashtirishning metodologik asoslarini shakllantiradi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS kabi) talablari asosida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki ijodiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan tizim sifatida qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirish pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Kreativ yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni noodatiy vaziyatlarda qo'llash hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili ta'limida bu jarayon lingvokreativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, interaktiv metodlar va 4K modeli (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya) asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Biroq ushbu yondashuvni amaliyotga to'liq joriy etish uchun pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy jihatdan asoslash va ularni tizimli modellashtirish zarurati mavjud.

Pedagogik shart-sharoitlar deganda ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlaydigan didaktik, metodik, tashkiliy va psixologik omillar tizimi tushuniladi. Ona tili ta'limida kreativ yondashuvni joriy etishda o'qituvchining metodik kompetensiyasi, ta'lim muhitining erkinligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati hamda o'quv topshiriqlarining ijodiy xarakterga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o'quv jarayonini modellashtirish orqali maqsad, mazmun, metod va natijani yagona tizim sifatida uyg'unlash-tirish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy obyektini boshlang'ich ta'limda ona tili darslarining mazmuni, metodik tuzilishi va didaktik modellashtirish jarayonlari tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish jarayoni o'zining o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari, o'quvchilarning yosh davri imkoniyatlari, til materialining murakkablik darajasi va o'qituvchining metodik yondashuviga ko'ra boshqacha yuksak tizimlilikni talab etadi. Shu bois, modellashtirish texnologiyasidan foydalanish, avvalo, ta'limning strukturaviy jihatlarini, darsning didaktik komponentlarini, o'quvchi faoliyatining ketma-ketligi va o'qituvchi rahbarligining ilmiy asoslarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini tug'diradi. Tadqiqot obyektining dolzarbligi shundan iboratki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda o'quv faoliyatini aniq maqsadlar asosida tashkil etish, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, o'qitish jarayoniga tizimli yondashish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillari hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili o'quv predmetining vazifalari keng: o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, savodxonlikni mustahkamlash, tilning leksik-grammatik tizimi haqida boshlang'ich tasavvurlar berish, matn bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish, shuningdek, kreativ fikrlashni rag'batlantirish. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda modellashtirish texnologiyasi o'qituvchiga o'quv faoliyatini oldindan loyihalash, uni soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan izchil tizimga solish, har bir dars bo'g'inini o'zaro



bog'liq komponentlar sifatida ko'rish imkonini beradi. Tadqiqot obyektining yana bir muhim jihati shundaki, modellashtirish nafaqat dars jarayonini, balki o'quvchi faoliyatini boshqarish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. U dars maqsadlarini aniq belgilash, o'quv jarayonini konseptual asosda tashkil etish, topshiriqlarni o'quvchining rivojlanish darajasiga moslashtirish va ta'lim natijalarini monitoring qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida modellashtirishning boshlang'ich ta'lim ona tili darslaridagi amaliy qo'llanishi, uning didaktik samaradorligi, metodik imkoniyatlari hamda o'quvchilarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri o'rganildi. Predmetning tanlanishi bejiz emas, chunki boshlang'ich sinflarda ona tili darslari o'quvchilarning umumiy tafakkuri, nutq madaniyati va mantiqiy fikr yuritishi shakllanadigan asosiy bosqichdir. Bu esa mazkur jarayonni boshqarishda modellashtirish texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar ilmiy natijalarning ishonchligi, tahliliy yondashuvning to'liqligi va xulosalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi. Avvalo, nazariy tadqiqot metodlari yordamida modellashtirishning mohiyati, didaktik asoslari, pedagogik innovatsiyalardagi o'rni va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi ahamiyati chuqur o'rganildi. Mazkur bosqichda mahalliy va xorijiy pedagogika fanidagi ilmiy tadqiqotlar, didaktika va metodika sohasiga taalluqli monografiyalar, maqolalar, ta'lim jarayonini loyihalashga oid nazariy ishlanmalar tahlil qilindi.

Ilmiy adabiyotlarni solishtirish va umumlashtirish orqali modellashtirishning pedagogik jarayonga tatbiq etish imkoniyatlari, u orqali o'quvchilarda mahsuldor o'quv faoliyatini shakllantirish mexanizmlari aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv metodidan foydalanilib, ona tili darsining maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita va baholash komponentlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan didaktik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Tizimli tahlil modellashtirish jarayonida darsning har bir elementi alohida, shu bilan birga bir butun yagona tizim sifatida ishlashini ko'rsatdi. Konstruktiv tahlil metodi asosida esa o'quvchini faol subyektga aylantiruvchi modellashtirish jarayonining didaktik modeli ishlab chiqildi, uning bosqichlari, funksiyalari va o'quv jarayonidagi roli aniqlashtirildi.

Tadqiqotning amaliy qismida pedagogik kuzatuv metodi qo'llanilib, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining amaldagi holati, o'qituvchining dars jarayonini tashkil etish uslubi, o'quvchilarning faol ishtiroki va o'zlashtirishidagi muammolar o'rganildi. Kuzatuv natijalari modellashtirish texnologiyasini joriy etish zarur bo'lgan metodik kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Suhbat va intervyu metodlari orqali o'qituvchilar, metodistlar va boshlang'ich sinf rahbarlarining modellashtirish bo'yicha fikrlari, amaliy tajribalari, ehtiyoj va takliflari yig'ildi. Bu ma'lumotlar modellashtirishning amaliy qo'llanishiga oid xulosalarni aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari o'quvchilarning lingvokreativ faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. O'quv jarayoniga kreativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va 4K modeli elementlarini integratsiya qilish natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi va ijodiy yondashuvi rivojlanganligi kuzatildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar oddiy reproduktiv javoblardan ko'ra, mustaqil izlanishga asoslangan, mantiqan asoslangan va original yechimlar ishlab chiqishga ko'proq moyillik bildirgan. Bu holat ularning nutqiy faoliyatida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirgan bo'lib, fikrni erkin ifodalash, izchil bayon qilish va til birliklaridan ijodiy foydalanish ko'nikmalari rivojlangan.

Pedagogik kuzatishlar natijasida kreativ topshiriqlar bajarilgan guruhlarda o'quvchilarning faollik darajasi yuqori bo'lgani, dars jarayonida o'zaro muloqot va hamkorlik kuchaygani aniqlangan. Ayniqsa, guruhli ishlarda kollaboratsiya va kommunikativ kompetensiya elementlari sezilarli darajada rivojlangan.

Qiyosiy tahlil natijalari kreativ yondashuv qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari an'anaviy yondashuv qo'llanilgan sinflarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi. Bu esa modellashtirilgan o'quv jarayonining samaradorligini tasdiqlaydi. O'quvchilarning lingvokreativ topshiriqlarni bajarish jarayonida til birliklarini tanlashda erkinlik, nutq qurilishida variativlik hamda obrazli ifodalardan foydalanish darajasi oshganligi qayd etildi. Bu esa ona tili ta'limida kreativ yondashuvning faqat bilim berish emas, balki ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Umumiy natijalar shuni tasdiqlaydiki, pedagogik shart-sharoitlar to'g'ri tashkil etilganda, modellashtirish asosidagi kreativ yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirish pedagogik tizim sifatida qaralganda, o'quvchilarning lingvokreativ kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalarni tahlil qilish shuni anglatadiki, ona tili ta'limini faqat til birliklarini o'zlashtirish darajasida tashkil etish o'quvchilarda ijodiy nutq yaratish, mustaqil fikrlash va kommu-

nikativ moslashuvchanlikni to'liq shakllantirish imkonini bermaydi. Aksincha, o'quv jarayonini kreativ model-lashtirish asosida tashkil etish, uni real kommunikativ, muammoli va ijodiy vaziyatlar bilan integratsiyalash o'quvchilarning kognitiv va nutqiy rivojlanishiga tizimli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar kreativ yondashuvning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir necha ilmiy-pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshishini ko'rsatdi.

Birinchi mexanizm o'quv jarayonining kontekstual tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, bunda til materiali sun'iy mashqlar ko'rinishida emas, balki real hayotiy vaziyatlar asosida o'zlashtiriladi. Bu holat o'quvchilarda til birliklarini funksional qo'llash kompetensiyasini shakllantiradi.

Ikkinchi mexanizm o'quvchilarning faol pozitsiyasini ta'minlash bilan izohlanadi. Kreativ modellashtirilgan darslarda o'quvchi passiv qabul qiluvchi emas, balki ijodiy jarayonning faol subyekti sifatida ishtirok etadi. Bu esa uning nutqiy tashabbuskorligi, fikrni erkin ifodalash qobiliyati va ijodiy qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Uchinchi mexanizm 4K modeli asosidagi integrativ yondashuv bilan bog'liq bo'lib, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va hamkorlik kompetensiyalarining bir vaqtning o'zida rivojlanishini ta'minlaydi. Bu integrat-siya ona tili ta'limini yagona kompetensiyaviy tizim sifatida shakllantiradi. Tadqiqot natijalari kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida o'quvchilarning lingvokreativ faolligi sifat va miqdor jihatdan sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

O'quvchilar nutq qurilishida variativlik, obrazlilik, mantiqiy izchillik va kommunikativ moslashuvchanlik elementlaridan kengroq foydalangan. Bu holat ularning tilni nafaqat vosita, balki ijodiy ifoda vositasi sifatida anglashiga olib kelgan. Biroq tadqiqot jarayonida kreativ modellashtirishni to'liq va samarali joriy etishga to'sqinlik qiluvchi ayrim omillar ham aniqlandi. Ularning eng muhimlaridan biri o'qituvchilarning kreativ-metodik kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi hisoblanadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ayrim pedagoglar modellashtirish texnologiyalarini dars jarayoniga tizimli integratsiya qilishda metodik yondashuv yetishmovchiligini boshdan kechirmoqda.

Ikkinchi muhim muammo o'quv materiallarining strukturaviy cheklanganligi bilan bog'liq bo'lib, mavjud darsliklarda kreativ va lingvokreativ topshiriqlar tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa o'quvchilarning ijodiy nutq faoliyatini uzluksiz rivojlantirishga to'liq imkon bermaydi.

Ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ pedagogika va modellashtirish texnologiyalari zamonaviy ta'limda o'quvchi markazli yondashuvni kuchaytiradi hamda kompetensiyaviy ta'lim modelini amalda samarali qo'llash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi va ona tili ta'limida kreativ modellashtirishni tizimli joriy etish zarurligini asoslaydi.

Metodik qism. Ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirish metodikasi o'quvchilarning lingvokreativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida shakllantiriladi. Ushbu metodik tizimning ilmiy asosini konstruktivistik ta'lim nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv hamda faoliyatga yo'naltirilgan didaktika tamoyillari tashkil etadi.

Metodikaning konseptual maqsadi o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil nutq yaratish va til birliklarini kontekstual hamda kreativ qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bu jarayonda o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi subyekt emas, balki uni yaratish va qayta ishlashda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida qaraladi. Metodik tizimning markaziy komponenti modellashtirilgan o'quv faoliyati hisoblanadi. Har bir dars ma'lum kommunikativ, muammoli yoki ijodiy vaziyat modeli asosida tashkil etiladi. Bu vaziyatlar real hayotiy kontekstga yaqinlashtirilgan bo'lib, o'quvchilarda tilni funksional qo'llash va ijodiy nutq yaratish imkoniyatini kengaytiradi.

Metodik tizim uch asosiy funksional blokka asoslanadi. Birinchi blok lingvistik-kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib, so'z boyligini kengaytirish, semantik tahlil va til birliklarini kontekstual qo'llashni o'z ichiga oladi. Ikkinchi blok struktural-nutqiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilib, matn yaratish, fikrni izchil bayon qilish va nutqni mantiqiy tashkil etishni ta'minlaydi. Uchinchi blok esa kreativ-kommunikativ faoliyatni rivojlantiradi, bunda o'quvchilar ijodiy matnlar yaratadi, muammoli vaziyatlarni hal qiladi va nutqni obrazli ifodalashga o'rganadi.

Metodik jarayonda interfaol pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Rolli o'yinlar, muammoli o'qitish, klaster, aqliy hujum, "case study" va guruhli loyihalar o'quvchilarning faolligini oshiradi hamda kollaborativ o'qish muhitini shakllantiradi. Ushbu usullar 4K modeli bilan integratsiyada qo'llanilganda o'quvchilarning kreativ va kommunikativ kompetensiyalari birgalikda rivojlanadi.

Raqamli ta'lim vositalari ham metodikaning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Multimedia resurslari, inter-aktiv platformalar va vizual materiallar o'quvchilarning idrokini faollashtiradi, nutqni vizual-konseptual asosda rivojlantirishga yordam beradi. Baholash tizimi ham modellashtirilgan yondashuvga mos holda ishlab chiqiladi. O'quvchilarning natijalari faqat yakuniy javob asosida emas, balki jarayon davomida namoyon bo'lgan ijodiylik, mantiqiylik, nutqiy izchillik va kommunikativ samaradorlik mezonlari asosida baholanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali tizim ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning lingvokreativ kompetensiyasini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish va nutqiy faoliyatni takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Kreativ modellashtirish asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchilarda tilni ijodiy vosita sifatida anglashni shakllantiradi, ularning mustaqil fikrlash darajasini oshiradi hamda kommunikativ kompetensiyasini kengaytiradi. Bu esa ona tili ta'limining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Tadqiqot natijalari kreativ model-lashtirishni samarali joriy etish uchun o'qituvchilarning metodik va kreativ tayyorgarligini oshirish, o'quv mate-riallarini lingvokreativ topshiriqlar bilan boyitish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov, A. (2018). *Pedagogika nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: "Fan va texnologiya".
2. Nishonova, D. (2020). *Ta'limda kreativ tafakkurni rivojlantirish usullari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. To'raqulov, N. (2019). "Kreativlik tushunchasining pedagogik talqini." *O'zbekistonda pedagogika fanlari jurnali*, №2, 34-39.
4. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.
5. Torrance, E. P. (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-technical manual*. Lexington, MA: Personnel Press.
6. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). Possibilities of creative thinking and its manifestation in the educational process. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
7. Kulmuminov, U. (2023). Creative teaching in the development of creative education. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.
8. Kulmominov, O. (2023). Issues of development of student's creative skills in world science. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56.
9. Kulmominov, O. (2023). Technology for development of creative thinking skills of primary class students in natural science teaching. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.
10. Kulmominov, O., & Ibragimova, F. (2024). Development of creative ability of students in primary education as a pedagogical problem. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 66-69.
11. Kulmominov, O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(5), 283-289.
12. Hilola, N. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga suv tejash va ularni isrof qilmaslikka oid bilimlarni o'rgatish. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 7(5), 170-173.
13. Safar o'g'li, K. U. (2024). Pedagogical foundations for the development of creative skills in world science. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 10-13.
14. Safar o'g'li, K. U. (2024). Features of the process of developing creative abilities in native language lessons. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 6-9.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.